Milyon yil kutdim-u umidsiz, abgor,
Bir dilni Xudoni sevganday sevdim!
Keyin... ko'tarildi buyuk bir to'fon,
Falakni kuydirdi hasratim, ohim.
Hech kimga bunchalik kuygan emasdim,
Balki shu baxtimdir yoki gunohim.

Shoira ijodida ishq mavzusi asosiy o'rinni egallashi hech kimga sir emas. Borliqdagi har bitta detaldan ishq bunyod eta olishi ijodkorning o'ziga xos uslubidan biridir. She'rdagi sarkash kayfiyat uning motivini belgilaydi. Ruhiy holatni ko'rsatib turuvchi *umidsizlik, abgorlik, buyuk to'fonning ko'tarilishi, falakning kuyishi* – bularning barcha-barchasi chuqur iztirobli kechinmalarni ifodalab kelgan. So'zning hissiy-mavhumiy ko'lami kengayishi bilan holat oddiylikdan murakkablik tomon o'sib boradi. Joiz bo'lsa, hatto o'quvchiga she'rni teran anglashni qiyinlashtiradi. Bu esa she'r tiynatining o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Kimdir ilhom oldi,
Kimdir zavq oldi,
Men esa ko'ngilning kuzidan bezdim.
Bir tun alamlardan jon berayotib
Yuragimga bahor kirganin sezdim.
U qaytdi uyg'otib dillar tongini,
Jonbaxsh ko'zlaridan chekindi O'lim.
G'animim, sen agar bo'lmaganingda,
Sevgimiz bo'lmasdi bu qadar so'lim! [3;13-b.]

She'rning bunday davom etishi, albatta, ajablanarli hol. Chunki biz lirik qahramonning allaqachon iztiroblarga taslim bo'lgan qiyofasini his qilib bo'lgan edik. Lekin ijodkor she'r so'nggini umidsiz kayfiyat bilan tugatish niyati yo'q. U, baribir, o'sha alamli sevgidan ham quvonch topaveradi. Hatto, muhabbatini armonga aylantirib bergan g'animga ham tashakkur aytishni unutmaydi. She'r misralarida lirik qahramonning turfa qiyofasini o'quvchi his qilar ekan, demak, og'riq ham, quvonch ham uning qalbidan sizib chiqayotganligiga ishonadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Zebo Mirzayeva she'riyati inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini badiiy aks ettirishga qodirligi bilan ajralib turadi. Shoira lirik qahramon kechinmalarini obrazlar, ramzlar va badiiy vositalar orqali chuqur va ta'sirchan ifodalaydi. Uning she'rlarida muhabbat, hijron, iztirob va umid kabi tuyg'ular o'zaro uyg'unlashib, o'quvchini ruhiy mushohadaga chorlaydi. Ayniqsa, kontrast, takror va ritorik so'roqlarning mahorat bilan qo'llanishi she'rlarning emotsional kuchini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Akramov B. She'riyat gavhari. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
(2). Jumatova N. Hozirgi o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq obrazlar. Fil. fan.. nomz... diss., Toshkent, 2000, 124-bet.
(3). Mirzayeva Z. Ishq. Toshkent, "Akademnashr", 2011.
(4). Mirzayeva Z. Nur kukunlari. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2004.
(5). Oripov A. Ehtiyoj farzandi. Toshkent, "Yosh gvardiya", 1988.

Mambetov Ikram Kamalovich (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti; ikram mambetov79@mail.ru)

QORAQALPOQ SHE'RIYATIDA AN'ANAVIY JANRIY SHAKLLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qoraqalpoq she'riyatida an'anaviy janriy shakllarning qo'llanilishi, ularning xususiyatlari hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Qoraqalpoq she'riyatining shakllanishida xalq og'zaki ijodi, termalar va dostonlarning muhim o'rni ko'rsatib beriladi. Shuningdek, XVIII–XIX asrlarda Sharq mumtoz she'riyati ta'sirida ayrim aruz unsurlarining kirib kelishi, ammo barmoq vaznining asosiy poetik vazn sifatida saqlanib qolgani ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari qoraqalpoq she'riyatining shakliy taraqqiyoti folklor merosi, mumtoz adabiyot tajribasi hamda zamonaviy adabiy jarayonlar ta'siri bilan shakllanganini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *an'anaviy janriy shakllar, barmoq vazni, aruz vazni, folklor an'analari, turkiy adabiyot*

ТРАДИЦИОННЫЕ ЖАНРОВЫЕ ФОРМЫ В КАРАКАЛПАКСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация. *В данной статье анализируется использование традиционных жанровых форм в каракалпакской поэзии, их метрические особенности и этапы исторического развития. Показана*

важная роль устного народного творчества, терме и дастанов в формировании каракалпакской поэзии. Также научно обосновано, что в XVIII–XIX веках под влиянием восточной классической поэзии проникли некоторые элементы аруза, но в качестве основного поэтического размера сохранилась силлабика. Результаты исследования показывают, что развитие каракалпакской поэзии формировалось под влиянием фольклорного наследия, опыта классической литературы и современных литературных процессов.

***Ключевые слова**: традиционные жанровые формы, силлабика, аруз, фольклорные традиции, тюркская литература.*

TRADITIONAL GENRE FORMS IN KARAKALPAK POETRY

***Annotation**. This article analyzes the use of traditional genre forms in Karakalpak poetry, their metrical features, and historical development stages. The important role of oral folk art, terms, and dastans in the formation of Karakalpak poetry is shown. It is also scientifically substantiated that in the 18th-19th centuries, under the influence of Eastern classical poetry, some elements of aruz penetrated, but the barmaq remained the main poetic meter. The research results show that the formal development of Karakalpak poetry was shaped by the influence of folklore heritage, the experience of classical literature, and contemporary literary processes.*

***Keywords**: traditional genre forms, barmaq meter, aruz meter, folklore traditions, Turkic literature*

Kirish. Qoraqalpoq she'riyati turkiy xalqlar adabiy merosining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, xalq og'zaki ijodi, diniy-ma'rifiy an'analar hamda klassik Sharq adabiyoti bilan uzviy aloqada taraqqiy etgan. Qoraqalpoq she'riyatining badiiy taraqqiyotida, ayniqsa an'anaviy janriy shakllar muhim rol o'ynagan. Ushbu shakllar nafaqat poetik ifoda vositalarini boyitgan, balki xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va estetik qarashlarini ham o'zida mujassamlashtirgan.

Qoraqalpoq xalqining qadimiy og'zaki ijodi namunalarida – qo'shiqlar, termalar, dostonlar, maqol va topishmoqlarda – badiiy ifodaning o'ziga xos tizimi shakllangan. Bu tizim keyinchalik yozma adabiyot rivojida ham muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Folklor namunalari, ayniqsa, doston va qo'shiqlar, qoraqalpoq poeziyasining vazn tuzilishi va ritmik xususiyatlariga asos bo'lgan. Shu sababli qoraqalpoq she'riyati shakllanish jarayonida xalq og'zaki ijodi an'analari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XVIII–XIX asrlarda qoraqalpoq shoirlarining madrasalarda ta'lim olishi, arab va fors tillarini o'rganishi natijasida adabiy jarayonga Sharq mumtoz poeziyasining shakliy xususiyatlari kirib keldi. Bu davrda aruz vaznining ayrim elementlari qoraqalpoq she'riyatida qo'llanila boshladi. Ammo barmoq vazni xalq og'zaki ijodi bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli asosiy vazn sifatida saqlanib qoldi. Barmoq vazni turkiy xalqlar she'riyatida keng tarqalgan bo'lib, uning ritmik tuzilishi xalq qo'shiqlari va epik asarlarda tabiiy ravishda shakllangan.

Adabiyotshunos S.Axmetovning ta'kidlashicha, she'riyatdagi shakliy yangilanishlar bir davrning mahsuli emas, balki uzoq tarixiy taraqqiyot natijasidir [1]. Har bir davr o'zining estetik talablari va ijtimoiy sharoitlariga muvofiq ravishda poetik shakllarni boyitib boradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, qoraqalpoq poeziyasida folklor an'analari, mumtoz Sharq adabiyoti tajribasi va zamonaviy adabiy jarayonlar o'zaro uyg'unlashgan holda rivojlanganini ko'rish mumkin [2]. Umuman she'riyatdagi vazn bo'yicha bir qator asarlar yaratgan olimlarning biri U.To'ychiyevning o'zbek adabiyotidagi barmoq va aruz vaznlariga bag'ishlangan asarlarini adabiyotshunoslikdagi eng muhim asarlar qatoriga kiritish mumkin [3]. Vazn haqida, uning she'riy asarlardagi o'rni, barmoq, aruz vaznlari, o'ziga xos belgilari haqida bu asarlardan e'tiborga loyiq fikrlarni olish mumkin. Qozoq olimi Z.Qabdolov "So'z san'ati" asarida maqol-matallarni tahlil qilib kelib "Bu qo'shiqlarda bo'g'inlarni bo'g'inga to'plab tartibga keltirib yurgan ovoz to'lqinlari belgilangan [4]. XIX asr qoraqalpoq adabiyotining buyuk vakillaridan biri bo'lgan Ajiniyoz ijodida ham an'anaviy shakllarning yangicha talqini yaqqol ko'zga tashlanadi [5]. Uning she'rlarida xalq qo'shiqlari ohangi, barmoq vazni va Sharq poeziyasiga xos badiiy obrazlar uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Bu holat qoraqalpoq poeziyasida milliy poetik an'analarning mustahkam asosga ega ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi qoraqalpoq she'riyatida an'anaviy janriy shakllarning qo'llanishi, ularning vazn xususiyatlari hamda tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, ushbu shakllarning zamonaviy poeziyadagi transformatsiyasi va badiiy funksiyasi ham o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy metod orqali qoraqalpoq she'riyatining shakllanish jarayoni turli davrlar kesimida tahlil qilindi. Bunda folklor davri, klassik davr hamda XX asr adabiy jarayonlari o'zaro solishtirildi. Ushbu metod poetik shakllarning evolutsiyasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, she'riy matnlarning til va uslub xususiyatlari, she'r satrlarining bo'g'in tizimi, ritmik tuzilishi

hamda qofiya tizimi tahlil qilindi. Ayniqsa, barmoq o'lchovining strukturaviy xususiyatlari hamda uning zamonaviy poeziyadagi qo'llanilish shakllari alohida e'tibor bilan ko'rib chiqildi. Nazariy asos sifatida U.To'ychiyev, S.Axmetov, Z.Qabdolov kabi olimlarning poetika va she'riy shakllar haqidagi ilmiy qarashlaridan foydalanildi. Bu ilmiy qarashlar she'riy matnlarni nazariy jihatdan tahlil qilishda metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Tadqiqot materiallari sifatida qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi namunalaridan – termalar, qo'shiqlar, dostonlar hamda XIX–XX asr qoraqalpoq shoirlari ijodidan olingan she'riy matnlar o'rganildi. Ushbu matnlar orqali an'anaviy shakllarning rivojlanish bosqichlari va ularning badiiy funksiyasi aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qoraqalpoq she'riyatining asosiy vazni barmoq vazni hisoblanadi. Bu vaznning asosiy mezoni she'r satrlarida bo'g'in sonining tengligidir. Barmoq tizimi turkiy poeziyaning eng qadimiy poetik shakllaridan biri bo'lib, uning ritmik tuzilishi xalq qo'shiqlari va epik asarlarda tabiiy ravishda shakllangan [6]. Barmoq vaznining muhim xususiyatlaridan biri, unda bo'g'in chegarasi ko'pincha so'z chegarasiga mos keladi. Ya'ni aruz tizimidan farqli ravishda bir so'z ikki bo'g'inga ajratilmaydi. Bu esa she'riy nutqning tabiiy va ravon bo'lishini ta'minlaydi. Folklor namunalari hamda klassik she'riyatda quyidagi bo'g'in tizimlari keng tarqalgan. 7–8 bo'g'inli termalar va qo'shiqlar. Bu turdagi she'rlar, asosan, xalq qo'shiqlarida uchraydi va ularning ritmik tuzilishi sodda hamda ohangdor bo'ladi.

El bar jerde úniń bar,
El bar jerde kúniń bar,
Saltıń bolsa xalqıń bar,
Xalqıń bolsa dańqıń bar. [7]

9–11 bo'g'inli she'rlar. Bu shakl ko'proq lirika janrida qo'llanadi. Bunday she'rlar badiiy fikrni ifodalashda qulay bo'lganligi sababli keng tarqalgan. 11–12 bo'g'inli to'lg'ovlar. Bu turdagi she'rlar, asosan, falsafiy va didaktik mazmundagi asarlarda uchraydi. Epik asarlarda voqeani bayon etuvchi qismlar, ko'pincha, 7–8 bo'g'inli satrlarda beriladi. Bu shakl voqeani tez va ravon bayon qilish imkonini beradi. Qahramonlarning nutqi yoki dialoglari esa, ko'pincha, 11 bo'g'inli satrlarda ifodalanadi. Bu esa dramatik ta'sirni kuchaytiradi.

Yarınan ayrılǵan biygana bolar,
Jerinen ayrılǵan diyana bolar,
Hárreler ushuban páruana bolar,
Uyası buzılıp paldan ayrılsa. [8]

XX asr qoraqalpoq she'riyatida tonik tizim elementlari ham ko'rina boshladi. Bu tizimda urg'u tushadigan bo'g'inlar muhim rol o'ynaydi. Natijada satrlar bo'g'in soni jihatidan turlicha bo'lishi mumkin. Bunday she'rlarda ritmik ohangni saqlash uchun pauza, intonatsiya, assonans va alliteratsiya kabi fonetik vositalardan keng foydalaniladi. Tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, qoraqalpoq shoirlari yangi shakllarni izlash jarayonida folklor an'analaridan faol foydalanganlar. Maqol-matallar, xalq qo'shiqlari va boshqa og'zaki ijod namunalari she'riy matnlarda keng qo'llanilgan. Bu holat milliy poetik an'analarning davomiyligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari qoraqalpoq she'riyatida shakliy izlanishlar asosan an'anaviy vazn asosida amalga oshirilganini ko'rsatadi. XX asrda jahon adabiyotining ta'siri bilan yangi poetik shakllar paydo bo'ldi. Biroq bu shakllar milliy poetik an'analardan butunlay uzilib ketmadi. Aksincha, ular milliy poeziya an'analari bilan uyg'unlashgan holda rivojlandi. Ba'zi hollarda tonik yoki erkin o'lchov shakllari ham qo'llanila boshladi. Bunday shakllar, ayniqsa, zamonaviy lirika janrida uchraydi. Shuningdek, qoraqalpoq she'riyatining muhim xususiyatlaridan biri folklor an'analarini saqlab qolish va ularni yangi davr talablariga mos ravishda qayta talqin qilishdir. Shoirlar xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanib, yangi badiiy obrazlar yaratgan hamda zamon ruhini ifodalashga erishgan. Bu jarayon milliy poetik tafakkurning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki folklor an'analari she'riyatning badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi hamda milliy adabiyotning o'ziga xosligini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari qoraqalpoq she'riyatida an'anaviy janriy shakllar yetakchi o'rin egallashini ko'rsatadi. Barmoq o'lchovi qoraqalpoq poeziyasining asosiy vazn tizimi bo'lib, u folklor, klassik va zamonaviy she'riyatda uzluksiz davom etib kelmoqda. XX asrda yangi poetik shakllar paydo bo'lishiga qaramay, ular, asosan, milliy poetik an'analar asosida rivojlangan. Bu holat qoraqalpoq adabiyotining tarixiy uzviyligini va milliy badiiy tafakkurning barqarorligini ko'rsatadi. Demak, qoraqalpoq she'riyatining shakliy taraqqiyoti folklor merosi, klassik adabiyot tajribasi hamda jahon adabiy jarayonlari

ta'sirining o'zaro uyg'unligi natijasida shakllangan. Ushbu an'anaviy shakllar bugungi kunda ham qoraqalpoq poeziyasining badiiy rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Ахметов С. Әдебият хәм критика. Нөкис, 1978.
[2]. Мамбетов К. Шығыс әдебияты тарийхы. Нөкис, "Билим", 1993.
[3]. Туйчиев У. Адабий турлар ва жанрлар. 2-жилд, Тошкент, "Фан", 1992.
[4]. Қабдолов З. Сөз өнери. Алматы, "Мектеп", 1982.
[5]. Мамбетов К. Әдебият теориясы. Нөкис, "Билим", 1995.
[6]. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. Тошкент, 1976.
[7]. Мамбетов К. Ерте дәўирдеги қарақалпақ әдебияты. Нөкис, "Билим", 1992.
[8]. Әжинияз. Таңламалы шығармалары. Нөкис, "Қарақалпақстан", 1965.

Hafizova Muxlisa Abdig'ani qizi (O'zDJTU "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail:muxlisah@gmail.ru)

ERKIN VOHIDOV LIRIKASINING BADIIY JOZIBASI

Annotatsiya. *Maqolada Erkin Vohidov ijodining o'ziga xos tomoni o'rganiladi. Shoir ijodida Navoiy va Fuzuliyning ta'siri, g'azallariga bog'lagan muxammaslari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *g'azal, muxammas, shoir, ijod, mumtoz adabiyot, asar, she'riyat.*

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОЧАРОВАНИЕ ЛИРИКИ ЭРКИНА ВОХИДОВА

Аннотация. *В статье рассматриваются специфические аспекты творчества Эркина Вохидова. Анализируется влияние Навои и Фузулы на творчество поэта, мухаммасы, которые он придавал своим газелям.*

Ключевые слова: *газель, мухаммас, поэт, творчество, классическая литература, творчество, поэзия.*

THE ARTISTIC CHARM OF ERKIN VOKHIDOV'S LYRICS

Annotation. *The article studies the specific aspects of Erkin Vokhido's work. The influence of Navoi and Fuzuli on the poet's work, the mukhammas he attached to his ghazals are analyzed.*

Keywords. *Ghazal, mukhammas, poet, work, classical literature, work, poetry.*

Kirish (Introduction). Erkin Vohidov mumtoz adabiyotni sevib, Navoiy, Fuzuliy singari yetuk adiblar etagidan tutdi. Ularni ustoz deb bildi. Asarlarini katta qiziqish va qunt bilan o'rgandi. Lekin aynan ularga taqlid qilib, bir qolipda ijod qilgani yo'q, balki o'z yo'lini topishga erishdi. Natijada o'zining yo'lini, uslubini topdi: "Erkin she'riyatda taqlid davridan sakrab o'tib ketdi. Navoiyga ham, Boburga ham, Mashrabga ham taqlid qilmadi. Ularga asir bo'lib qolmadi ham. O'sha mumtoz shoirlarning she'r san'ati sirlarini o'rgandi. O'rganganda ham qayta-qayta o'rgandi. Nihoyat, o'z yo'lini topdi. She'r ham kuy, ham fikr, ham suvrat, ham tushuncha. U yig'i, u faryod, u quvonch, u nur..." [1;32-b.] deganida Said Ahmad tamomila haq edi. Shoir aruz vaznida yozilgan she'r va muxammaslari bilan o'zbek adabiyoti chamanzorida mudrab yotgan aruzni shunday asarlar yordamida uyg'otib yubordi.

E.Vohidov Navoiyning g'azallariga go'zal taxmislar ham bog'lagan. Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda muxammaslar bog'lash kuch sinash bahslashuv vositasi bo'lgan. Lekin muxammas E.Vohidov uchun ustozlari bilan bahslashish emas, o'z fikr va kechinmalarini yanada chuqurroq ifodalash, adabiy musobaqaga kirishish vositasi. Shoir bog'lagan muxammaslarda ham an'anaga muvofiq, g'azalning vazni va qofiyasi saqlangan.

"Aylagach" radifli g'azaliga bog'langan muxammas vazni ramali musammani mahzuf (foilotun foilotun foilotun foilun) vaznida yaratilgan. Bu ham taxmisning mukammal va go'zal ohangda bo'lishini ta'minlagan.

Ko'z ochar gulshanda g'uncha, bulbul afg'on aylagach,
Nega afg'on aylay, ul gul yuzni tobon aylagach, [5;120-b.]

Taxmisning birinchi bandi shunday boshlanadi. Radifning asli qofiya bilan bir xilda bo'lishi, ya'ni, aylagach radifi g'azalni jozibali, ohangdor bo'lishini ta'minlagan. E.Vohidov an'anaga muvofiq, hazrat Navoiy fikrlarini bevosita davom ettirgan, natijada uyg'unlik paydo bo'lgan. Bu esa shoirni hazrat Navoiy g'azallarini mukammal bilganligi, uning uslubi, fikr teranligini chuqur anglaganligi ifodasidir. Shoirning yana bir taxmisi hazrat Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi 169-g'azaliga bog'langan. Bu g'azalning 7 baytiga ham to'liq taxmis bog'lagan. G'azalda ifodalangan ma'no mushtarakligi shoirning yuksak mahoratidan dalolat berib turibdi.